



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA
O'QUVCHILARNI IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH**

Raximova Lobarxon Shavkatjon qizi

Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi

Ilmiy rahbar: Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

komiljonovaguluzra6@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida ijodiy fikrlashga o'rgatishning samarali usullari bilan birga o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, ularni amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, texnologiya darsi, ijodiy faoliyat, o'quvchilarni o'rgatish, amaliy ko'nikmalar, metodika, ijodkorlik, o'quv jarayoni.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning barchasi ta'lim-tarbiya ishlarini yangi dasturlar asosida yuqori darajaga ko'tarishga, fikrlash doirasi keng, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, kreativ fikrlaydigan o'quvchilar tayyorlashga qaratilgan. Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur islohatlar va boshqa o'zgarishlar jarayoni kun tartibiga shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga yordam beradigan ijodkorlik, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish muammosini ustuvor vazifa sifatida ilgari surmoqda.

Perizdentimiz Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek: - "Farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Mana, maktablarimizga qanday muhit kirib kelishi kerak!". Darhaqiqat bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va kreativlikni rivojlantirish, ularni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf texnologiya darslari o'quvchilarga o'z ijodlarini namoyon etish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliy faoliyat jarayonida qo'llash imkoniyatini beradi. Hamma davrlarda ham yosh avlodni mukammal bilimga ega, mustaqil fikrlovchi va qobiliyatli yoshlarni kamol toptirish muhim o'rin tutishi kerakligini anglagan holda jamiyatda faoliyatning turli sohalarida band bo'lgan mutaxassis kadrlarni va ualrning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali maqsadga erishish mumkin.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2019-yil 16-yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4119-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda⁹⁵.

Mamlakatimiz maktablarida ta’lim jarayonida o’quvchilarni mustaqil va kreativ fikrlashga hamda ijodiy faoliyatga yo’naltirishni taqozo etayotgan hozirgi davrda boshlang’ich sinf texnologiya darslarida o’quvchilar ijodiy fikrlash va ijodiy faoliyat ko’nikmalarini rivojlantirish zarur. Texnologiya darslarida o’quvchilarda ijodiy faoliyat rivojlanadi shuningdek o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi, muammolarni hal qilish va yangi g’oyalarni yaratishda yordam beradi.

ASOSIY QISM. Ma’lumki, boshlang’ich sinflarda texnologiya fanining asosiy maqsad va vazifalari: mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash, o’quvchilarni boshlang’ich politexnik bilim bilan qurollantirish, texnologiya faniga amaliy tayyorlash, texnologik operatsiyalarining malaka va ko’nikmalari bilan qurollantirish, o’quvchilarni texnologiya fani jarayonida har tomonlama rivoltantirishni tarkib toptirishdan iborat. Texnologiya darslari ta’lim sohasida ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini nazariy tahlil qilish, asosan ikkita asosiy masalani hal qilishni o’z ichiga oladi;

Birinchidan, boshlang’ich ta’lim mazmunida ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini aks ettirish;

Ikkinchidan, boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun boshlang’ich ta’limning ilmiy va pedagogik salohiyatidan foydalanish. Mazkur bosqichda yuqoridagi muammolarni hal qilish xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Texnologiya fani darslarida o’quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish jarayonining mazmun va mohiyatini to’laonli tushunish uchun dastlab “ijod”, “ijodkorlik”, “ijodiy faoliyat” kabi tushunchalarning ma’nosini anglab olish talab etiladi.

Ijod — bu yangi va original g’oyalar, narsalar yoki tushunchalar yaratish jarayoni. Ijodiy jarayon kishining tasavvuri, fikrlash usuli va tajribasi asosida shakllanadi. Texnologiya fanida ijod, asosan, yangi mahsulotlar, qurilmalar yoki dasturlar yaratish bilan bog’liq bo’ladi.

Ijodkorlik — bu insonning ijod jarayonida faol ishtirok etish, yangi va o’zgacha g’oyalar yaratish qobiliyatidir. Ijodkorlik ko’plab sohalarda, shu jumladan, texnologiya fanida o’z ifodasini topadi.

Ijodiy faoliyat — bu ijodkorlik jarayonidagi muhim bosqichlardan biri bo’lib, bu jarayonda shaxs o’zining tasavvurini, bilim va malakalarini yangi shakllarda ifodalashga

⁹⁵https://www.researchgate.net/publication/378952367_Boshlang'ich_ta'lim_texnologiya_darslarida_o'quvchilarning_kreativlik_qobiliyatini_rivojlantirish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

harakat qiladi⁹⁶. Texnologiya fanida bu faoliyat, yangi texnologiyalarni yaratish, loyiha ishlab chiqish, mahsulotni ishlab chiqarish yoki ilmiy izlanishlar olib borish kabi ko‘plab amaliy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ular muayyan muammolarni hal qilishda, yangi texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishda, shakllantirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashda o‘zlarining ijodiy potensialini ishga solishlari kerak. Ijodiy faoliyat o‘quvchilarga texnologiya fanining maqsadlarini tushunish va o‘z bilimlarini kengaytirish imkonini beradi.⁹⁷

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga o‘rgatish yuzasidan mavjud bo‘lgan nazariy va amaliy yondashuv asosida bir qancha olimlar va mutaffakirlarning olib borgan ishlarini o‘rganib chiqildi.

1980-yillar boshida rus olimlari G.S.Altshuller va I.M.Vertkinlar o‘z oldiga “Ijodkor shaxs bo‘lish uchun inson qanday fazilatlariga ega bo‘lishi kerak?”, masalasini muammo sifatida qo‘ydilar. Buning mohiyati shundan iborat bo‘ldiki, ijodkor odamda juda ko‘p fazilatlar bo‘lishi kerak ekan.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- ✓ tafakkurning mustaqilligi;
- ✓ o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- ✓ standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- ✓ o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Psixolog N.D.Levitovning ta’kidlashicha, ijodiy faoliyatning rivojlanishi uchun quyidagi mezonlar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu mezonlar faqatgina fikrlash jarayonining umumiy xususiyatlarini emas, balki ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda muhim qadamlarni ham ko‘rsatib beradi.

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyada ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Masalan, turli va tabiiy materiallardan foydalanish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o‘yinlar orqali pedagogik jarayonni tashkil etish va bu orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Bugungi kunda texnologiya fanining tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi. Shu bois, boshlang‘ich

⁹⁶ Karimova, N. (2022). Texnologiya darslarida ijodiy yondashuvning amaliy asoslari. – Farg‘ona: Ilm ziyo.

⁹⁷ Zamonaviy adabiyot muammolari Ijodkor uslubi va badiiy mahorat Umida Rasulova





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi alohida e'tibor talab qiladi.

Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslari o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, bunda tajriba – amaliy o'lchashlar, qog'oz qirqimlaridan yasaladigan turli figuralarni yasash ko'p hollarda ijobiy natija beradi. Boshlang'ich ta'limda o'quv dasturi asosida rejalashtirilgan.

2-sinf, 1-chorak “Yomg'irli kun”, “Kuz mavsumi”, “Hosilni yig'ib olamiz”, “Oltin kuz”, “Tabiiy materiallardan ijodiy ishlar”, “Tipratikon”, “Toshbaqa”, “Doiralardan jonivorlar yasash”.

2-sinfda “Tabiiy materiallardan ijodiy ishlar”, “Tipratikan-xatcho'p”, “Quyuncha” shaklidagi o'yinchoq “Lotto o'yini”, “Soat”, “Akvarium”, “Organayzer yasaymiz”.

3-sinfda “Gullar”, “Ayyor tulki”, “Mandarin daraxti”, “Qorbolalar”, “Asalari”.

4-sinfda “Varrak”, “Elektr chiroq”, “Chiroq tuzilishi” kabi mavzular mavjud. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun turli metod, usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Quyidagi ko'rgazmali metodni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

a	y	e	l	i	m	a	k	e	t
b	j	b	m	j	b	j	m	v	b
q	a	y	ch	i	q	a	l	a	m
k	v	s	i	r	k	u	l	k	v
v	k	b	v	k	a	r	t	o	n
ch	i	z	g'	i	ch	i	p	v	a
v	j	f	s	q	o	g'	o	z	j
a	n	g	i	sh	v	o	n	a	m
v	n	a	k	v	i	l	l	i	ng
i	g	m	a	t	o	y	k	y	p
b	i	g	i	z	b	k	a	t	





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



1-rasm. O'quvchilar jadvaldan so'zni topishadi va rasmga moslaydilar.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ijodiy faoliyatni shakllantirishda o'yin usullaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. O'yin shaklidagi mashg'ulotlar o'quvchilarning diqqatini jamlash, ularni faol ishtirok etishga undash va yangi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, "Texnologiya kvestlari" yoki "Muammo yechish o'yinlari" o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirishda samarali vosita bo'la oladi.

Shuningdek, o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarga ochiq savollar berishlari lozim. "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Boshqa qanday usullar bo'lishi mumkin?" kabi savollar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun individual yondashuv ham zarur. Har bir o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olib, moslashtirilgan vazifalar berish orqali ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada ochish mumkin. Bu esa o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni yanada faol bo'lishga undaydi.

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ota-onalarni ham ta'lim jarayoniga jalb qilish, uyda qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish va ularni ijodiy faoliyatga rag'batlantirish bo'yicha maslahatlar berish o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ijodkorlik va ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash esa bolalarning kuzatuvchanlik va tafakkur qobiliyatlarini oshirishda katta yordam beradi. Shu sababli, pedagoglarning zamonaviy metod va vositalardan foydalanib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari zarur.


Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish ularning nafaqat texnik bilimlarini oshirish, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar, muammolarni hal qilishga yo'naltirish, guruhda ishlash, rag'batlantiruvchi muhit yaratish va zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish bu jarayonning asosiy omillari hisoblanadi. Shu bilan birga, o'yin usullari, ochiq savollar, individual yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik ijodiy faoliyatni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasi xalq Ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashitirish to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.-Xalq so‘zi gazetasi,2016-yil 31-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. 2019-yil 16-yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4119-son qarorlar.
4. J. Shodiyeva. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv - metodik majmua. Samarqand – 2019.
5. Matlab Tillavova. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2021.
6. Mavlonova R.A. Mehnat o‘qitish metodikasi: mehnat faoliyatini va darslarni tashkil etish bo‘yicha o‘quv metodikasi/ R.A.Mavlonova, M.T.Satbayeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: Noshir 2013.
7. Norqo‘ziyev. Shuhratbek. Interfaol ta’lim metodlari. Ta’lim metodlari. 09.04.2017.
8. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo‘rayev. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy”. Durdona nashriyoti, 2021.
9. Z. Xolmatova. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma /– Farg‘ona, 2020.
10. Abduraxmonova, N. A. qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>. (2023).
11. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. Boshlang‘ich ta’limda chet el o‘quvchilarini baholash mezonlari va samarali taqdirlash. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, (2023).
12. Glaveanu, V. P. Educating which creativity? Thinking Skills and Creativity, (2018).
13. Maxmudova, P. H. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonining afzalliklari: Maxmudova Ruxsora Navro‘z qizi Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. (2023).
14. 1.N.A. Abduraxmonova (2025). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko‘nikmalarning roli. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

15. N.A. Abduraxmonova. "bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko'nikmalarning roli" Inter education & global study, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.
16. 2. Abduraxmonova, N. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati. Science and innovation, 1(B8), 2114-2121.
17. Abduraxmonova, N. "bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati." Science and innovation 1.B8 (2022): 2114-2121.
18. 3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208-211.
19. Abduraxmonova, N. A. "qizi. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." Educational Research in Universal Sciences 2.12: 208-211.
20. 4. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 83-87.
21. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 3.1 (2024): 83-87.
22. 5. Абдурахмонова Нигораксон. (2024). Идждий фаолиятини такомиллаштиришда бо'ладжак бошлангич синф о'китувчиларининг индивидуально-шаклий сифатлари. Университетская исследовательская база, 55–58.
23. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. Inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, (2023).
24. Mirzaliyevna, S.Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorlikka o'rgatishda xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi (o'qish va ona tili o'qish savodxonligi darslari misolida". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), (2023).
25. Otto, M., & Thornton, J. (2023). Fanlararo bog'lanishlar asosida talabalarni bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9.
26. Otto, Mark, and Jacob Thornton. Fanlararo bog'lanishlar asosida talabalarni bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish. Qo'qon universiteti xabarnomasi 9 (2023)
27. Komiljonova, G. N. qizi. Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), (2023).
28. Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi and To'lqinova Munira Xasanboy qizi 2025. Boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilik. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 46,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2 (May 2025), 7–11. Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi, and To‘lqinova Munira Xasanboy qizi. “boshlang‘ich ta‘limda ko‘rgazmalilik”. Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, vol. 46, no. 2, May 2025, pp. 7-11, <https://scientific-jl.com/tal/article/view/17407>. Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi, To‘lqinova Munira Xasanboy qizi. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KO‘RGAZMALILIK . ta‘lim. 2025;46(2):7-11. Accessed June 10, 2025. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/17407>

29. Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi, and Madumarova Mo‘bina. “BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA - FANLARARO ALOQADORLIK”. Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, vol. 46, no. 2, May 2025, pp. 12-16, <https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408>. Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi, Madumarova Mo‘bina. Boshlang‘Ich Ta‘limda - Fanlararo Aloqadorlik . ta‘lim. 2025;46(2):12-16. Accessed June 10, 2025. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408>

